

KICHRAYTIRISH KONSEPTUAL SEMANTIKASININING DISKURSIV

XUSUSIYATLARI

**ИССЛЕДОВАНИЕ КОНЦЕПТУАЛЬНОЙ СЕМАНТИКИ РЕДУКЦИИ В
ЛИНГВИСТИКЕ**

**THE STUDY OF THE CONCEPTUAL SEMANTICS OF DIMINUTIVENESS
IN LINGUISTICS**

Nodirbek Xamidov,

Andijon Chet tillar instituti stajyor tadqiqotchisi

E-mail: hamidovn@bk.ru

tel: 91 619 14 84

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichraytirish konseptual semantikasining diskursiv xususiyatlari borasida fikr yuritiladi. Shu o'rinda mashhur o'zbek, ingliz va rus yozuvchilarining asarlaridagi kichraytirish semantikasiga oid misollar olinib tahlil qilindi. Mazkur kichik ilmiy tadqiqotning natijalaridan hulosa qilishimiz mumkinki, kichraytirish kategoriyasi murakkab va keng qamrovli fnuksional xarakterga ega tushuncha sifatida subyektiv va baholovchi munosabat ifodalashi, ma'lum bir kontekstga, muloqot maqsadiga, ijtimoiy va madaniy omillarga bog'liqligi kabi rang-barang diskursiv xususiyatlarga ega ekanligi tadqiq etildi.

Kalit so'zlar: Giperonim, giponim, morfologik vositalar, ekspressiv kichraytiruvchilar, subyektiv ottenkalar, subyektiv baho, subyektiv bo'yoqdorlik.

Аннотация: В статье рассматриваются дискурсивные особенности концептуальной семантики умаления. Проанализированы примеры семантики умаления в произведениях известных узбекских, английских и русских писателей. По результатам этого небольшого научного исследования можно сделать вывод, что категория минимизации как понятие со сложным и всесторонним функциональным характером представляет собой субъективно-оценочное отношение, к определенному контексту, общению. Было изучено, что оно обладает различными дискурсивными особенностями, в том числе в

зависимости от его цели, социальных и культурных факторов.

Ключевые слова: Гипероним, гипоним, морфологические средства, экспрессивные уменьшительные формы, субъективные оттенки, субъективная оценка, субъективная окраска.

Abstract: This article reflects on discursive properties of the diminutive conceptual semantics. In this context, examples of diminutive semantics in the works of famous Uzbek, English, and Russian writers were taken and analyzed. From the results of this small scientific study, we can conclude that the category of diminutiveness has complex and broad functional characteristics, is an expression of a subjective and evaluative attitude in the form of an understanding, has various discursive features, such as its dependence on a certain context, the purpose of communication, and social and cultural factors.

Keywords: Hyperonym, hyponym, morphological means, expressive diminutives, subjective accents, subjective assessment, subjective coloring.

KIRISH

Kichraytirish kategoriyasi murakkab va keng qamrovli funksional xarakterga ega tushuncha sifatida rang-barang diskursiv xususiyatlarga ega. Shu nuqtayi nazardan turli tillardagi kichraytirish vositalarining turli nutq janrlari va kontekstlarda qo'llanilishini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Masalan, og'zaki va yozma nutqda, so'zlashuv, badiiy va reklama diskurslarida kichraytirishning qo'llanish xususiyatlarini aniqlash ularning muayyan diskurs doirasidagi o'ziga xos jihatlarini aniqlash imkonini beradi. Xususan, kichraytirish kategoriyasi vositalarining kommunikativ maqsadga qay darajada xizmat qilishi, pragmatik vazifalari va emotsiyal ta'siri turli diskursiv vaziyatlarda tahlil qilinishi maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy rollari, o'zaro munosabatlari va madaniy omillarni kichraytirishning ishlatalishiga ta'siri o'rganiladi.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODLAR

Ismigul Imomovaning "Application of subjective evaluation forms in Sharof Boshbekov's drama "Iron woman" (Sharof Boshbekovning "Temir xotin" dramasida subyektiv baholash shakllarining qo'llanilishi") maqolasida badiiy asarlarda, xususan,

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

dramatik asarlarda ham barcha til birliklari badiiylik, ta'sirchanlik, ifodaviylikni oshirish, individuallikni ta'minlash, o'ziga xos obraz yaratish, ijodkor g'oyaviy maqsadini amalga oshirish uchun faol qo'llanilishi ta'kidlanadi. Jumladan, -boy, -xon, -bek, -oy, -jon, -gina, -loq, -toy, -voy, -poshsha kabi kichraytirish-erkalash qo'shimchalari (manbalarda subyektiv baho shakllari deb ham yuritiladi [1], asosan, qahramon nutqiga xos bo'lib, murojaatda qulaylik uchun, subyektiv munosabatni ifodalash, nutq ta'sirchanligini oshirish, soddalik, tabiiylikni yuzaga keltirish maqsadida qo'llanilishi tahlilga tortilgan [2].

Maqola muallifi asarning bosh qahramoni Qo'chqor tilida boshqa qahramonlar nutqida kam qo'llanilgan, shu qahramon nutqini individuallashtirishda ishtirok etgan – toy qo'shimchasi qahramonning o'ziga xos tabiatini ochishda rosa qo'l kelganligiga urg'u beradi: "Qahramon *Olimtoy*, o'g'iltoy, *Bozortoy* deb murojaat qilganda, samimiy, xalqona murojaatni eshitamiz, o'zbekona nutqning bir qirrasini ko'ramiz, Qo'chqorning o'z qadrdonlariga nisbatan sodda, erkin, do'stona munosabatini his qilamiz" [2].

A.A.Buryakovskayaning "Диминутивность в различных стилистико-функциональных типах дискурса" maqolasi kichraytirishning turli xil stilistik va funksional bog'liqlikdagi matnlarga xos diskursiv xususiyatlarini ko'rib chiqishga qaratilgan [3]. Jumladan, rus va ingliz tillaridagi maqol va matallarning qiyosiy tahlili orqali rus xalq og'zaki ijodida diminutivlar ko'p qo'llanishi, ingliz tilida kichraytirish boshqa ifoda vositalari bilan almashtirilishi (tasvirni o'zgartirish, sinonimlardan foydalanish, gradatsiya, qofiyalash va boshqalar) ta'kidlanadi.

Воля птичке – дороже золотой клетки.

Nightingales will not sing in a cage

Muallifning izohlashicha, rus tilidagi ushbu maqolda xabarning maqsadiga qisman kichraytirish vositasidan foydalanish orqali erishiladi. Ingliz tilida *qush* giperonimi o'rniga *bulbul* giponimi ishlatalishi zarur hissiy muhitni yaratadi, chunki an'anaviy ravishda *bulbul* yoqimli, yoqimtoy tushunchalari bilan bog'liq. Shunday qilib, bu maqollarda *qush* va *bulbul* kichraytirish ma'nosini ifodalovchi bir xil semani anglatadi. Bu maqollarning o'zbekcha muqobili sifatida Alisher Navoiyning "*Oltin*

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

qafas ichra gar qizil gul bitsa, bulbulg'a tikondek oshiyon bo'lmas emish" aforistik misralarini keltirish mumkin.

Shuningdek, A.A.Buryakovskaya o'z maqolasida kichraytirish verbalizatorlarining kundalik muloqot, ilmiy, siyosiy, OAV diskurslaridagi o'ziga xos jihatlarini ajratib beradi. Masalan, ilmiy muloqotda aniq va mavhum otlarga qo'shiluvchi mini- va mikro- prefikslari keng qo'llaniladi. *Mini-* prefiksli leksemalar, dastlab, moda jurnallarida ayollar kiyimlari tavsifida *ministripe*, *minipleated (dress shirt)* tarzida paydo bo'lgan bo'lsa, keyinchalik *mini-cabbage*, *minichips (french fries)*, *miniplant*, *mini-play*, *mini-moke* (kichik eshak, taxminan uch fut balandlikda), *minipig* (tibbiy tadqiqotlar uchun yetishtirilgan kichik cho'chqa) kabi so'zlar paydo bo'lgan. Bugungi kunda *mini-* prefiksi so'zlashuv uslubida tobora keng tarqalgan bo'lib, u so'zlovchining maxsus hissiy kayfiyatini ifodalaydi [3]. Shunisi xarakterlik, *mini-* va *mikro-* prefikslari rus tili orqali o'zbek tiliga ham o'zlashgan morfologik vositalar sifatida *минифутбол*, *мини юбка*, *минитрактор*, *микрорайон*, *микроучастка*, *микроинсульт*, *микрозайм* kabi qator so'zlar tarkibida faol qo'llanilmoqda.

Tabiatshunoslik va professional muloqotda diminutiv so'zlarning katta qismi atamalar sifatida ishlataladi: шляпка (гвоздя), кулачок, dummy, collet va hokazo [3].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ma'lumki, kichraytirish, kuchsizlantirish ma'nolari yuzaga kelishining rang-barang uslubiy imkoniyatlari mavjud. Bu borada V.N.Vinogradova va Z.Yu.Petrovalarning "Структура и употребление диминутивов в разных функциональных стилях" maqolasida diminutivlarning turli funksional uslublarda qo'llanilishi masalasi yoritilgan bo'lib unda mualliflar quyidagi holatlarni bayon qiladilar:

1. Ekspressiv kichraytiruvchilar sezilarli darajadagi kichik o'lcham ma'nosi ifodalashi mumkin: *В четыре года отец сделал Коле лыжонки* (Gazetadan).
2. Kichraytirish oti, ba'zan, motivlovchi ot bilan yonma-yon qo'yish orqali ta'kidlanadi: "Не лицо, а личико, слишком маленькое для взрослого человека. (И. Грекова. Хозяин гостиницы) Куда ни посмотришь - кранщицы, краны, кранники" (B.Афонин, "Мой КамАЗ"). Bunday qiyoslashda, ko'pincha, okkazionalizmlar

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

tug‘iladi. Kran leksemasi, aslida, og‘ir va katta yuklarni bir o‘rindan boshqa joyga ko‘tarib olishga moslangan maxsus mashina turi bo‘lib, uning vazifasiga ko‘ra ma‘nosida “katta” semasi mayjud bo‘lsa-da, *краницы*, *краны*, *крануки* qatorida “nisbatan kichik” ma‘noli kran turi ham nazarda tutiladi [4].

3. So‘zlovchining nutq predmetiga ijobiy yoki salbiy munosabati turli subyektiv ottenkalar bilan ifodalanishi mumkin.

Kichraytirish kategoriyasi predmet yoki sifatlarni ifodalash uchun mo‘ljallangan bo‘lsa-da, so‘zlashuv nutqi va badiiy nutqda ularning semantikasi va faoliyati subyektiv baholash, jumladan, kuchaytiruvchi shakllanishlarning boshqa ifoda usullariga o‘xshaydi. Ular, asosan, kontekst va vaziyat bilan belgilanadi, ya’ni obyekt o‘lchamiga, nutq predmetiga yoki adresatga munosabatni ifodalaydi. Bu o‘rinda so‘zlovchining subyektiv bahosining uch asosiy obyekti to‘g‘ri ta’kidlangan:

1) obyekt o‘lchami;

2) so‘zlovchining nutq predmetiga munosabati, ma’qullah-erkalash yoki rad etish-kamsitish;

3) adresatga munosabat [4].

So‘zlovchining his-tuyg‘ulari va ularning ifodalanishi, o‘z navbatida, so‘zlovchining qandayligini tavsiflovchi bo‘lib ham xizmat qiladi.

Kichraytirish shakllari meyozi ma‘nosida ham qo‘llanilishi mumkin. Adabiyotshunoslikda **meyozis** - bu yunoncha *méōn* ("kamaytirish")dan olingan bo‘lib, biror narsani ataylab kamaytiruvchi, yoki uning ahamiyati yoki hajmi bo‘yicha aslidagidan kichikroq ekanligini anglatuvchi evfemistik nutq shaklidir. *Meyozis* ko‘pincha satirik planda qo‘llanib, obyektning haqiqiy hajmi va xususiyatlarini past darajada ko‘rsatishga qaratiladi: *Морозицко-то не дай бог, заколеешь»* (А.Иванов, “Тени исчезают в полдень”).

F.I.Buslaev shunday deb yozgan edi: “Otlarning nomlanishida ikki xil ifodani farqlash kerak bo‘ladi: ba’zilari obyekt o‘lchamiga, boshqalari - so‘zlovchining nutq predmetiga va tinglovchiga munosabatni ifodalaydi. Birinchi holda, otlar, masalan, kuchaytiruvchi yoki kamaytiruvchidir: *столице*, *столик*; ikkinchisida - erkalash va kamsitish: masalan, *Петруша*, *Петрушка*, *Петя*, *Петка*.”

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

“Lingvistik nomlash mazmunida o‘rnatilishi mumkin bo‘lgan barcha elementlar ichida eng qiyini hissiy belgini tahlil qilishdir. Sababi, hissiy belgida moddiy mazmun va ramziy ahamiyatdan ko‘ra ko‘proq so‘zlovchining nuqtai nazari bilan birga tinglovchi yoki o‘quvchiga munosabat ham namoyon bo‘ladi va bu yerda nutqiy vaziyat ko‘p narsani hal qiladi” [5].

Ba’zan narsa-buyumni ifodalovchi leksema tarkibidagi “*kichik*” semasining aktuallashuviga asoslanib, o‘sha predmetning kichiklik etaloni bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, *Ushoq*. Nonning mayda bo‘lakchalari; uvoq. (O‘TIL, 4-jild. 312-B.) *Chumoli*. Oila, to‘da bo‘lib bir uyada yashaydigan kichkina hasharot; qumursqa. (O‘TIL. 4-jild. 516-B.)

Ertalabdan-kechgacha chumoliday g‘imir-g‘imir qilasiz-u, rohatini ko‘rmaysiz. (Sh.Boshbekov. Temir xotin. 40-B.)

Qalbingizning unut bo‘lib ketgan, o‘zingiz ham bilmaydigan allaqaysi burchaklarida miltillayotgan ushoqqina norozilikdan qo‘rqasiz, uyalasiz, uni sezmaslikka olasiz! (Sh.Boshbekov. Temir xotin. 41-B.)

Kontekstda *chumoli*, *ushoq* leksemalaridagi “*kichik*” semasi (*odamning*) *chumoliday g‘imirlashi*, *ushoqqina norozilik* tarzidagi birikmalarda predmet va tushunchalarni ekspressiv bo‘yoqdorlik bilan ifodalanishi uchun asos bo‘lgan.

So‘zlovchining nutq predmetiga ijobiy yoki salbiy munosabati subyektiv bo‘yoqdorlik bilan ifodalanishi mumkin. Kichiklik ma‘nosi, ko‘pincha, ma’qullash, erkalash bilan birga keladi: *Ешъ, ешъ, мой милый, длинненъкий мой* (В.Шукшин. Любавины).

Rus tilida qarindoshlik ma‘nosini anglatuvchi shaxs otlari yoki kishi ismlariga turli xil hissiy tus ifodalovchi erkalash qo‘srimchalari ko‘p qo‘llanadi: *мамуся, мамуля, мамочка, маманя, мамаша; Катя, Катенька, Катюша* va boshqalar. O‘zbek tilida bu hodisa deyarli kuzatilmaydi, chunki bunda kichraytirish emas, erkalash ma‘nosi ustuvorlashadi: *ukajon, ukajonim, ukaginam*.

Ingliz tilida *younger brother, baby brother, kid brother, little bro, sibling, lil bro, buddy, bud, terror, my shadow’s pest*.

Robert Kennedy, younger brother to US President John Kennedy, said that the

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

gross domestic product "measures everything... except that which makes life worthwhile."

Dude, I'm sorry, bud, but Arnie's got to take care of business.

Прости, чувак, но Арни ждут дела.

I hear your kid brother got married.

Я слышала, твой младший брат женится.

A.V. Vasilyeva kichraytiruvchi shakllarning konnotativ semantikasini kengroq talqin qilishni taklif qiladi va ularning “asosiy vazifasi so‘zlovchining nomlangan obyektga hissiy-baholash munosabatini ifodalashdan iborat bo‘lgan hosila birliklar sinfi” deb ta’riflaydi [6].

Shaxsni yoki uning mansubligini, sifatlarini ifodalovchi salbiy belgili so‘zlar kichraytirish qo‘shimchalarini olganda qo‘pollik mazmunini yo‘qotib, erkalash-kichraytirish ma‘nosini ifodalashi mumkin. Masalan:

- *Что она сказала?*

- *Что ты дурак.*

- *Дурак или дурачок?*

- *Какая разница? Ну дурачок.*

- *Большая разница (Кинофильм «Неподдающиеся») [4].*

Rus tili so‘zlashuv nutqida do‘stona, samimiyl muloqot vaziyatini o‘rnatish maqsadida qo‘llanadigan ayrim kichraytirish shakllari stilistik jihatdan ahamiyatli belgi sifatida qabul qilinadi: *Я на вас плащик славенъкий видела* (Н.Мельников. Строится мост).

N.V. Menkovaning so‘zlariga ko‘ra, so‘zlovchilar ko‘pincha kichik obyektni nomlash uchun emas, balki fatik muloqot qilish uchun - suhbatdosh bilan iliq, do‘stona, ishonchli norasmiy muloqot muhitini yaratish maqsadida aloqa o‘rnatish uchun foydalanadilar: *Супчику поешь!; Сейчас посудку помою; На обедик-то пойдеме?* [7].

Bunday shakllarni qo‘llash suhbatdoshta nisbatan xushmuomalalik va ehtiyyotkorlik yuzasidan ma‘lum bir ijtimoiy rollarga ham xosdir, masalan, bo‘ysunuvchi tomon nutqida: *Ясненько, товарищ лейтенант* (Ю.Бондарев.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Горячий снег). ***O‘zbek tilida kichraytirish shakllarini qo‘llashda bunday usul kuzatilmaydi.***

V.E.Chernyavskaya o‘z maqolasida zamonaviy rus tilidagi kommunikativ amaliyatda qanday qilib kichraytirish ma‘nosidagi so‘zlarning shaxs / shaxslar guruhining maxsus, ijtimoiy ahamiyatga ega belgisiga aylanishini uning ijtimoiy ma‘nosi nuqtai nazaridan pragmasemantikaning obyekti sifatida o‘rganadi. Rus tilidagi kichiklik belgisini ifodalashning morfologik va grammatik imkoniyatlari nutq madaniyati nuqtai nazaridan shuningdek, kichraytirish kategoriyasiga xos so‘zlarning baholovchi fuksiyasi (*пальчик, масочка, книжечка*) keng muhokama qilingan. Biroq, pragmasemantik mazmunga ko‘ra turli diskursiv vaziyatlarda har xil ma‘no anglatishi masalasi endigina o‘rganilmoqda. Shu nuqtai nazardan, kichraytirishni ifodalashda yuzaga keladigan qo‘srimcha ma‘nolar bilan bog‘liq xususiyatlar ilmiy qiziqish uyg‘otadi. Bu qo‘srimcha ma‘nolar pragmatika proektsiyasida subyektiv, ya’ni xabar obyekti va uning manziliga nisbatan baholovchi munosabat ma‘nolariga ko‘ra ifodalanadi. Masalan, kichraytiruvchi belgili lingvistik birlikdan adresatga do‘stona munosabat bildirish, jumladan, so‘rovning kategoriyalilagini kamaytirish uchun foydalanish mumkin: *Масочку наденьте!* Shu bilan birga, diminutivlar istehzo, nafrat, rasmiy munosabatni ifodalash uchun xarakterlidir [8]. Demak, kichiklik belgilari kichik o‘lchamni bildirish bilan birga, nutq subyektining suhabatdoshga baholovchi munosabatini ham ifodalarydi. Kichraytirish kategoriyasining mazmuni va semantik ko‘lami turli tillarda o‘ziga xos va turlicha bo‘lib, diskursiv vaziyatga va muayyan tilning lingvistik aktuallashtirish vositalariga asoslanadi. Maqola muallifining fikriga ko‘ra, bu tillararo va madaniyatlararo muloqotda, tarjima amaliyotida yaqqol namoyon bo‘ladi. Masalan, rus tilida kichraytirishni ifodalashning affiksal usuli (*солнышко, щечка, хлебушек*) eng rivojlangan tipi bo‘lib, lisoniy ma‘nolarni yetkazishda, xususan, ingliz yoki o‘zbek tilidagi holatlar bilan mos kelmaydi.

Kichraytirish verbalizatorlaridagi rus tilining diskursiv xususiyatiga xos semantika va pragmatika o‘rtasidagi assimetriya tarjimada eng muhim jihatga e‘tibor qaratishni taqozo etadi: birinchi navbatda, kichiklik o‘lchamining denotativ ma‘nosi

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

emas, balki kommunikantlar munosabatining tabiatи birinchi o‘ringa chiqadi. Masalan, rus til tashuvchisi uchun “Зайдите на часок”, “Красивенько здесь”, “Едъ в командировочку”, “Возмите сумочку” kabi ifodalar kichraytirish mazmunidan uzoq bo‘lib, adresantning adresatga nisbatan munosabatini yoki nutqiy vaziyatning ijtimoiy status-rol munosabatlaridagi sotsial xoslanish belgisini ifodalaydi va bu hol har ikki tomon uchun ham adekvat hisoblanadi. Lekin boshqa til jamoasi vakillari uchun bu holni tushunish noqulaylik tug‘diradi. Masalan, shu jumlalarni so‘zma-so‘z “Bir soatginaga kiring”(1), “Bu yer chiroylikkina ekan”(2), “Komandirovkachaga ketyapman”(3) “Sumkachangizni oling”(4) tarzida tarjima qilsak, 1-, va 2-jumlalar har holda mazmunan mos kelyapti. Bunda jumla mazmunini mos keltirishda o‘zbek tilidagi –gina affiksining ozaytirma daraja hosil qilish funksiyasi qo‘l kelgan. Lekin 3-jumladagi *komandirovkachaga* tarzidagi tarjima *командировочку* so‘z shaklidagi ottenkani bera olmaydi. Shu tariqa, til birliklarining kamaytiruvchi qo‘srimchali pragmatik ma‘nolari tarjimada jiddiy qiyinchiliklar tug‘diradi. Aynan ikki xil tilni solishtirishda, bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish amaliyotida diskursiv-semantik noaniqlik, ya’ni so‘zning denotativ ma‘nosi bilan uning va pragmatik ma‘nosi o‘rtasidagi tafovutni anglamaslik noadekvatlikka olib keladi.

V.E.Chernyavskaya bugungi kunda rus tili vakillari orasida kichraytirish qo‘srimchalarini huda-behudaga ishlataverish hollari e‘tirozlarga sabab bo‘layotgani haqida ham o‘z mulohazalarini bayon qiladi va “Московские новости” gazetasida aynan shu masalada chop etilgan “Колоночка про диминутивчики”. Почему уменьшительно-ласкательные суффиксы вызывают ненависть” nomli maqoladan iqtiboslar keltiradi [8]. Shunisi qiziqliki, maqola nomidagi *колоночка*, *диминутивчики* kichraytirish shakllari ham qo‘yilayotgan masalaga kinoya, kesatiq ma‘nolarini ifodalashga xizmat qilgan.

Gazetadagi maqolada qayd etilishicha, mashhur jurnalist va media-trener, televidenie mahoratiga oid ko‘plab kitoblar muallifi Nina Zvereva o‘zining yubileyida o‘zining birinchi adabiy asari – “Скайпик” nomli iti to‘g‘risidagi bolalarga atalgan kitobini qanday yozganligi haqida gapirib beradi. Qo‘lyozma tayyor bo‘lgach, uni o‘zi tanigan adabiyotshunoslik bo‘yicha professorga yubordi. U tavsiya

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

qilgan birinchi va eng muhim narsa, barcha kichraytiruvchi qo'shimchalarni olib tashlash va "хвостик, носик, лапки и ушки" ni "хвост, нос, уши и лапы" bilan almashtirish edi. "Men o'zim bu o'zgartirishdan hayratda qoldim, kitob darhol butunlay boshqacha bo'lib qoldi, go'yo hamma narsa joyiga tushgandek edi", deb tan olgan edi muallif [8].

Ayni shu masalada N.V.Menkovaning ta'kidlashicha, muloqot sherigining ijtimoiy roli maqomini noto'g'ri belgilash natijasida tanlangan muloqot etiketi va noo'rin ifodaning mos kelmasligi rasmiy diskursda kichraytirish shakllaridan me'yordan ortiqcha foydalanishni qabul qilmaslik sabablaridan biriga aylangan [9].

Ya.Bistrov, E.Mintsis va Yu.Mintsislarning "English Diminutives in Children's Literature: A Case Study of Directive Speech Acts" maqolasida ta'kidlanishicha, -et, -ette, -y(-ie, -ey), -let, -ling, -ish, mini- kichraytirish affikslari yordamida yasalgan kichraytiruvchilar ma'noni kuchaytirib, turli xil ma'no ottenkalari, jumladan, kichiklik, muloyimlik, mehr, nafrat va boshqa ijobiy yoki salbiy munosabatni ifodalaydi [10].

XULOSA

Kichraytirish konseptual semantikasining diskursiv xususiyatlari shuni ko'rsatadiki, kichraytirish so'zning oddiyina kichraytirilgan shakli emas, balki o'zida so'zlovchining subyektiv munosabatini, emotsiyal holatini, maqsadini, ijtimoiy rollarini va kontekstga bog'liq ma'nolarni aks ettiruvchi murakkab bir til vositasidir. Kichraytirishning diskursiv xususiyatlarini tahlil qilish, tilning kommunikativ qudratini va inson ongingin nozik ifoda imkoniyatlarini tushunishga yordam beradi.

Kichraytirish kategoriyasi murakkab va keng qamrovli fnuksional xarakterga ega tushuncha sifatida subyektiv va baholovchi munosabat ifodalashi, ma'lum bir kontekstga, muloqot maqsadiga, ijtimoiy va madaniy omillarga bog'liqligi kabi rang-barang diskursiv xususiyatlarga ega.

Kichraytirish, odatda, o'lchov va subyektiv va baholash ma'nolarini birlashtiradi. Agar kichraytirish vositalari kontekstda o'lchovga nisbatan (hajm, og'irlik, yosh jihatdan va hokazo) parametrlar bilan bog'liq bo'limgan holda kelsa, konnotativ ma'no ifodalaydi.

Kichraytirish kategoriyasi verbalizatorlari funksional jihatdan faol til birliklari

sifatida turli diskurslarda o'ziga xos semantik imkoniyatlarga ega.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Кўнғуров Р. Субъектив баҳо формаларининг семантик ва стилистик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1980.
2. Имомова И.С. Application of subjective evaluation forms in Sharof Boshbekov's drama "Iron woman" // Proceedings of Multidisciplinary International Scientific-Practical Conference "Current Issues of Science, Education and Industry in Modern Research" 10 -12th December 2020. – Б.246-249
3. Буряковская А.А. Диминутивность в различных стилистико-функциональных типах дискурса//Известия Тульского государственного университета. Гуманитарные науки. № 2, 2010 – С. 310-316.
4. Виноградова В.Н., Петрова З.Ю. Структура и употребление диминутивов в разных функциональных стилях // <https://ispan.waw.pl/ireteslaw>
5. Матезиус В. Язык и стиль // Пражский лингвистический кружок. – Москва: Прогресс, 1967. – С. 457.
6. Буряковская А.А. Диминутивность в английской языковой картине мира: автореф. дисс. ... канд. филол. Наук. Тула, 2008.;
7. Менькова Н.В. Русские диминутивы в английском переводе романа М. А. Булгакова «Мастер и Маргарита»// Ярославский педагогический вестник № 3–2010. – С. 174 – 182.
8. Чернявская В.Е. Диминутивы как социальный индекс: «наденьте масочку» и «машинка подана» // Terra Linguistica. 2022, Том 13, № 3. С. 55–63.
9. Менькова Н.В. Диминутивы как речевая неудача // Верхневолжский филологический вестник. 2018. № 4. – С . 127–136.
10. Bystrov Y., Mintsys E. . Mintsys Yu. English Diminutives in Children's Literature: A Case Study of Directive Speech Acts // <https://www.researchgate.net/publication/353751541>